



TERMIN TIZIMI VA TERMIN MAYDONI: NAZARIY VA AMALIY ASOSLAR

Maxfuza Mirzamurodova Furqat qizi

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

1-bosqich tayanch doktoranti

Tel: +998935466668

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19364164>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 22-mart 2026 yil

Ma'qullandi: 26-mart 2026 yil

Nashr qilindi: 31-mart 2026 yil

KEYWORDS

termin, termin tizimi, termin maydoni, monosemiya, ierarxiya, normativlik.

ABSTRACT

Mazkur maqolada termin tizimi va termin maydoni tushunchalarining nazariy asoslari, ularning lingvistik xususiyatlari, struktur va semantik modellari, terminologik tizimlarning shakllanish bosqichlari hamda ilmiy tafakkur bilan bog'liqligi keng yoritiladi. Shuningdek, termin maydonining paradigmatic va sintagmatic munosabatlari, kognitiv asoslari va milliy terminologiya rivojida o'rni tahlil qilinadi.

Zamonaviy ilm-fan taraqqiyoti terminologik tizimlarning mukammal va izchil shakllanishini talab etadi. Har bir fan sohasi o'z tushunchalar tizimiga ega bo'lib, ushbu tushunchalar til vositasida terminlar orqali ifodalanadi. Terminlar oddiy leksik birliklardan farqli ravishda aniq, bir ma'noli va normativ xarakterga ega bo'lishi zarur. Terminlarning o'zaro mantiqiy bog'lanishi esa termin tizimini hosil qiladi.

Termin — muayyan fan yoki kasb doirasidagi maxsus tushunchani ifodalovchi til birligidir. E. Vüster terminologiyani tushunchalar tizimiga asoslangan ilmiy soha sifatida izohlaydi. Uning fikricha, termin birinchi navbatda tushunchaga tayangan holda yaratilishi va standartlashtirilishi lozim.

Mashhur hind tilshunosi Suniti Kumar Chatterji¹ terminologiya haqida quyidagicha fikr bildirgan: Har bir fan o'zining terminologik tizimiga ega bo'ladi. Terminlar til rivojining muhim omillaridan biridir. Yangi ilmiy tushunchalar paydo bo'lishi bilan yangi terminlar ham yaratiladi. Chatterji terminologiyani til taraqqiyotining faol jarayoni deb hisoblaydi. U ilmiy terminlarni milliy til imkoniyatlari asosida yaratish zarurligini ta'kidlagan.

Hind olimi R. G. Bhandarkar² ilmiy terminlar haqida shunday fikr bildiradi: Terminlar ilmiy tafakkurning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir ilmiy tushuncha aniq va barqaror termin orqali ifodalanishi kerak. Terminlar tilning oddiy so'zlaridan farq qilib, bir ma'nolilik (monosemantiklik) xususiyatiga ega bo'lishi zarur. Bhandarkar terminlarning aniqligi ilmiy muloqotda chalkashliklarning oldini olishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, terminologiya ilmiy bilimlarni tartibga soluvchi tizimdir.

¹ Chatterji S. K. The Origin and Development of the Bengali Language. – Calcutta: University of Calcutta, 1926. – 2 vols.

² Bhandarkar R. G. Collected Works of R. G. Bhandarkar. – Poona: Bhandarkar Oriental Research Institute, 1927. – 5 vols.

Tilshunos Ganesh Devi³ terminologiya haqida quyidagi fikrlarni ilgari suradi: Terminlar ilmiy bilimlarni tizimlashtiruvchi birlikdir. Ular ilmiy kommunikatsiyada universallikni ta'minlaydi. Terminologiya milliy til va global ilm-fan o'rtasidagi ko'prik vazifasini bajaradi. Devi terminlarni faqat til birliklari emas, balki madaniy va ilmiy bilimlarni uzatuvchi vosita sifatida ham ko'radi.

Hind tilshunosligida terminlar haqida quyidagi umumiy xususiyatlar ko'p ta'kidlanadi: termin aniq tushunchani ifodalashi kerak; termin bir ma'noli bo'lishi zarur; termin tizimli ravishda boshqa terminlar bilan bog'langan bo'ladi; terminlar ilmiy kommunikatsiyaning asosiy vositasi hisoblanadi.

Aleksander Reformatskiy terminlarni umumtil leksikasidan farqlab ko'rsatadi. "Terminlar – bu maxsus ilmiy tushunchalarni ifodalovchi til birliklari bo'lib, ular ma'lum bir terminologik tizim tarkibida yashaydi."

Reformatskiy terminning asosiy belgilarini quyidagicha ko'rsatadi: aniqlik, tizimlilik, maxsus soha bilan bog'liqlik. U zamonaviy terminologiya nazariyasini rivojlantirgan olimlardan biridir. "Termin – bu maxsus bilim sohasidagi tushunchani nomlovchi til birligi bo'lib, u terminologik tizimning elementi hisoblanadi." Grinev terminologiyani ilmiy kommunikatsiya vositasi va maxsus bilimlarni uzatish tizimi deb hisoblaydi.

Dmitriy Lotte rus terminologiya maktabining asoschilaridan biri hisoblanadi. U termini ilmiy tushunchaning aniq ifodasi sifatida talqin qiladi. "Termin — bu ma'lum bir fan, texnika yoki kasb sohasidagi aniq tushunchani ifodalovchi so'z yoki so'z birikmasidir".

Lottega ko'ra termin: aniq ma'noga ega bo'lishi, bir ma'nolilik (monosemiya) xususiyatiga ega bo'lishi, ilmiy tizim ichida ishlatilishi kerak. U terminologiyani tizimli ravishda tartibga solish zarurligini ta'kidlagan.

Danilenko terminologiyani tilning alohida qatlami sifatida ko'radi. "Terminologiya — bu ilmiy tushunchalar tizimini ifodalovchi maxsus leksik qatlamdir." U terminlarning paydo bo'lishi fan taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq ekanligini ta'kidlaydi.

Rus tilshunoslari fikriga ko'ra termin aniq va bir ma'noli bo'lishi kerak; ma'lum terminologik tizimga kiradi; ilmiy kommunikatsiyada muhim vosita hisoblanadi.

Ingliz va g'arb tilshunosligida ham termin va terminologiya masalasi chuqur o'rganilgan. Xususan, Eugen Wüster terminologiya fanining asoschilaridan biri hisoblanadi. U zamonaviy terminologiya nazariyasiga katta hissa qo'shgan. "Termin – bu ma'lum bir ilmiy yoki texnik tushunchani aniq ifodalash uchun ishlatiladigan til birligidir."⁴

Wüster terminlarga quyidagi talablarni qo'yadi: aniqlik, bir ma'nolilik, tizimlilik, xalqaro tushunarlilik. U terminologiyani fanlararo aloqa vositasi deb ham hisoblaydi.

John Humbley terminologiya va leksikografiya sohasida tanilgan olim. "Termin – bu maxsus bilim sohasiga tegishli tushunchani nomlaydigan leksik birlikdir." Humbley terminlarning ilmiy matnlarda qo'llanishi, soha doirasida aniq ma'noga ega bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi.

³ Devy G. After Amnesia: Tradition and Change in Indian Literary Criticism. – New Delhi: Orient Longman, 1992. – 264 p.

⁴ Wüster, E. Introduction to the General Theory of Terminology. – Vienna: Springer, 1979. – 275 p.

Maria Teresa Cabré terminologiyani kommunikativ nazariyasini ishlab chiqqan olim. "Termin – bu ma'lum bir bilim sohasidagi tushunchani ifodalovchi til birligi bo'lib, u ilmiy kommunikatsiyada ishlatiladi".

Cabré termini uch jihatdan ko'rib chiqadi: lingvistik birlik, kognitiv birlik (tushuncha), kommunikativ birlik.

Juan C. Sager terminologiya nazariyasini rivojlantirgan muhim olimlardan biridir. "Terminologiya – bu maxsus bilim sohasidagi tushunchalarni nomlash va tartibga solish bilan shug'ullanuvchi fan." Sager terminlarning ilmiy tizim ichida ishlashini fan rivojiga mos ravishda o'zgarib borishini ta'kidlaydi.

Ingliz va g'arb olimlarining qarashlariga ko'ra termin: maxsus bilim sohasidagi tushunchani ifodalaydi; ilmiy kommunikatsiya uchun xizmat qiladi; terminologik tizimning elementi hisoblanadi; aniqlik va bir ma'nolilikka ega bo'lishi kerak.

Termin tizimi ma'lum bir sohadagi terminlarning o'zaro mantiqiy, semantik va struktur munosabatlari asosida tashkil topgan yaxlit majmuadir. U tasodifiy birliklar yig'indisi emas, balki ierarxik va tizimli tuzilishga ega bo'lgan ilmiy modeldir.

Termin tizimining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Tizimlilik – terminlar o'zaro bog'liq holda mavjud bo'ladi. Termin tizimi terminlar o'rtasidagi: semantik, mantiqiy, leksik, grammatik bog'lanishlar orqali tashkil topadi. Bu bog'lanishlar orqali terminlar yagona konseptual modelni ifodalaydi.

- Ierarxiklik – umumiy va xususiy tushunchalar pog'onali tuzilma hosil qiladi. Termin tizimi ko'pincha generik–spetsifik (hyperonym–hyponym) munosabatlarga asoslanadi. Bunday ierarxiya termin tizimining konseptual asosini tashkil qiladi.

- Normativlik – terminlar rasmiy tasdiqlanadi va standartlashtiriladi.

- Monosemiya – termin bir tushunchani ifodalaydi.

- Dinamik rivojlanish. Termin tizimi statik emas. U ilmiy kashfiyotlar, texnologik rivojlanish, ijtimoiy ehtiyojlar ta'sirida doimiy ravishda yangilanib boradi. Masalan, sun'iy intellekt rivojlanishi bilan yangi terminlar paydo bo'ldi: machine learning, neural network, deep learning

- Ekstralingvistik omillarga bog'liqlik. Zamonaviy tadqiqotlar termin tizimining shakllanishida quyidagi omillar muhimligini ko'rsatadi: fan rivojlanish bosqichi, xalqaro ilmiy aloqalar, ingliz tilining ta'siri, texnologik taraqqiyot. Natijada termin tizimida ko'plab o'zlashma terminlar paydo bo'ladi.

Standartlashuv va kodifikatsiya. Termin tizimi ko'pincha ilmiy hamjamiyat tomonidan: Standartlashtiriladi, normallashtiriladi, terminologik lug'atlar orqali mustahkamlanadi. Bu jarayon terminlarning aniq va bir ma'noli ishlatilishini ta'minlaydi.

Termin maydoni — muayyan konseptual soha doirasida o'zaro semantik bog'langan terminlar majmuasidir. Bu tushuncha semantik maydon nazariyasiga asoslanadi (Trier, Termin maydoni tushunchalar o'rtasidagi paradigmatic va sintagmatic munosabatlarni aks ettiradi. Masalan, tilshunoslik termin maydonida 'fonetika', 'fonologiya', 'fonema', 'allofon' kabi terminlar o'zaro konseptual bog'lanishda bo'ladi.⁵

Termin tizimi va termin maydonining o'zaro munosabati. Termin tizimi kengroq tushuncha bo'lib, u butun soha terminologiyasini qamrab oladi. Termin maydoni esa shu tizim

⁵ Trier, J. Der deutsche Wortschatz im Sinnbezirk des Verstandes. – Heidelberg: Winter, 1931. – 347 p.

ichidagi alohida semantik segmentni tashkil etadi. Shu bois termin maydoni termin tizimining tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Zamonaviy terminologiyada struktur, funksional, kognitiv va sotsioterminologik yondashuvlar mavjud. Kognitiv terminologiya terminlarni inson tafakkuri va konseptual tizimi bilan bog'liq holda o'rganadi.⁶

Zamonaviy terminologiya nazariyasida termin tizimi ma'lum bir fan yoki faoliyat sohasiga oid tushunchalar va ularni ifodalovchi terminlarning tartiblangan va o'zaro bog'langan majmuasi sifatida qaraladi.

Tadqiqotchilar ta'kidlashicha: terminologiya ko'pincha ma'lum sohadagi terminlar yig'indisi bo'lsa, termin tizimi esa ularning mantiqiy, semantik va strukturaviy bog'liqligiga asoslangan tizimdir. Shu sababli termin tizimi muayyan tushunchalar tizimiga mos keladi, ilmiy nazariyaning til modeli sifatida xizmat qiladi.

Masalan, lingvistika, tibbiyot yoki informatika terminlari alohida terminlar yig'indisi bo'lishi mumkin, ammo ular tushunchalar o'rtasidagi ierarxiya asosida tashkil etilsa, termin tizimiga aylanadi.

2000-yildan keyingi terminologik tadqiqotlar termin tizimi masalasini yangi ilmiy yondashuvlar asosida talqin qiladi. Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda termin tizimi oddiy terminlar majmui sifatida emas, balki muayyan fan yoki faoliyat sohasining tushunchalar tizimini aks ettiruvchi murakkab va tartibli lingvistik tuzilma sifatida qaraladi. Boshqacha aytganda, termin tizimi ilmiy bilimlarning til orqali ifodalanish shakli bo'lib, u muayyan fan yoki sohaning nazariy asoslari bilan bevosita bog'liqdir.

Zamonaviy terminologiya nazariyasiga ko'ra, har bir fan yoki soha o'zining konseptual apparatiga ega bo'ladi. Ana shu konseptual apparat terminlar orqali ifodalanadi va ular o'zaro mantiqiy hamda semantik aloqalar orqali yagona tizimni tashkil etadi. Shu sababli termin tizimi fan rivojlanishining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Fan qanchalik rivojlansa, uning termin tizimi ham shunchalik boyiydi va murakkablashadi. Bu jarayonda yangi terminlar paydo bo'ladi, ayrim eski terminlar esa o'z ma'nosini kengaytiradi yoki yangilanadi.

XXI asr terminologiya tadqiqotlarining muhim xususiyatlaridan biri shundaki, termin tizimi faqat til nuqtai nazaridan emas, balki kognitiv, kommunikativ va informatsion jihatdan ham o'rganila boshladi. Kognitiv yondashuvga ko'ra, terminlar inson tafakkuridagi ilmiy tushunchalarning til shaklidir. Shu sababli termin tizimini o'rganish orqali inson bilimining tuzilishi, ilmiy tafakkur modeli va tushunchalar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash mumkin.

Bundan tashqari, zamonaviy terminologiyada termin tizimi va ilmiy kommunikatsiya o'rtasidagi bog'liqlik ham alohida ta'kidlanadi. Terminlar ilmiy axborotni aniq, ixcham va tushunarli shaklda uzatish imkonini beradi. Agar termin tizimi mukammal shakllangan bo'lsa, ilmiy fikr almashinuvi ham samarali bo'ladi. Shu sababli ko'plab mamlakatlarda terminologiyani standartlashtirish, terminologik lug'atlar yaratish va terminologik bazalar ishlab chiqish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda.

Termin tizimining yana bir muhim jihati uning dinamik xarakterga ega ekanligi bilan izohlanadi. Ilm-fan va texnologiya taraqqiyoti natijasida yangi tushunchalar paydo bo'ladi va ular yangi terminlarning shakllanishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa, axborot texnologiyalari, sun'iy

⁶ Temmerman, R. Towards New Ways of Terminology Description. – Amsterdam: John Benjamins Publishing, 2000. – 258 p.

intellekt, iqtisodiyot va tibbiyot kabi tez rivojlanayotgan sohalarda termin tizimi doimiy ravishda yangilanib boradi. Bu esa terminologiya tadqiqotlarining dolzarbligini yanada oshiradi.

Shuningdek, global ilmiy hamkorlik va xalqaro kommunikatsiya jarayonlari ham termin tizimining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Hozirgi davrda ko'plab terminlar ingliz tilidan boshqa tillarga o'zlashmoqda. Natijada milliy terminologiyalar xalqaro termin tizimlari bilan integratsiyalashmoqda. Bu jarayon esa terminlarning standartlashuvi, yagona ilmiy tushunchalar tizimini yaratish va fanlararo kommunikatsiyani rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, zamonaviy terminologiya nazariyasida termin tizimi ilmiy bilimlarni tartibga solish, saqlash va uzatishda muhim vosita sifatida qaraladi. Termin tizimi orqali muayyan fan yoki sohaning konseptual modeli yaratiladi va ilmiy tafakkurning strukturalari namoyon bo'ladi. Shu sababli termin tizimini o'rganish nafaqat lingvistika uchun, balki ilmiy bilimlarni tizimlashtirish va rivojlantirish jarayoni uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Termin tizimi va termin maydoni ilmiy tafakkurning til orqali ifodalanish mexanizmini tashkil etadi. Ular fan taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq bo'lib, tushunchalar tizimining aniq va izchil ifodalanishini ta'minlaydi. Zamonaviy lingvistika terminologiyani nafaqat leksik, balki konseptual va kognitiv hodisa sifatida ham o'rganadi. XXI asr terminologiya tadqiqotlari termin tizimini ilmiy bilimlar tizimining til shakli, professional kommunikatsiyaning asosiy vositasi hamda fan taraqqiyotining muhim ko'rsatkichi sifatida talqin qiladi. Termin tizimining tizimlilik, ierarxiya, aniqlik, barqarorlik va dinamik rivojlanish kabi xususiyatlari uning ilmiy va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi. Kelajakda terminologiya tadqiqotlari axborot texnologiyalari, korpus lingvistikasi va sun'iy intellekt bilan yanada integratsiyalashib, termin tizimlarini avtomatik tahlil qilish va boshqarish imkoniyatlarini kengaytirishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Wüster, E. Introduction to the General Theory of Terminology. – Vienna: Springer, 1979. – 275 p.
2. Trier, J. Der deutsche Wortschatz im Sinnbezirk des Verstandes. – Heidelberg: Winter, 1931. – 347 p.
3. Temmerman, R. Towards New Ways of Terminology Description. – Amsterdam: John Benjamins Publishing, 2000. – 258 p.
4. L'Homme, M. C. Lexical Semantics for Terminology: An Introduction. – Amsterdam: John Benjamins Publishing, 2020. – 240 p.
5. Chatterji S. K. The Origin and Development of the Bengali Language. - Calcutta: University of Calcutta, 1926. – 2 vols.
6. Devy G. After Amnesia: Tradition and Change in Indian Literary Criticism. - New Delhi: Orient Longman, 1992. – 264 p.
7. Bhandarkar R. G. Collected Works of R. G. Bhandarkar. - Poona: Bhandarkar Oriental Research Institute, 1927. - 5 vols.